



## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **71,0 %** ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **4 484** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **75,7** foizni tashkil qildi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 1 602 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 939 ta, sanoat tarmog'ida 706 ta, yashash va ovqatlanishda 398 ta, qurilish tarmog'ida 193 ta, axborot va aloqada 110 tani tashkil etilgan.



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 71,0 foizi (2023- yil yanvar-dekabrda 70,5 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 14 155,4 mlrd. so'mni (35,8 foiz) (faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 729 tani tashkil etdi);



43 298,0 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 97,8 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 924 tani tashkil etdi;



13 499,9 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 40,9 foizi) 2023- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 158,1 foizni tashkil etdi;



11 015,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 73,0 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 1 901 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 18,9 foizga (viloyatning jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 92,4 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 2,8 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 95,4 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 751 tani tashkil etdi);




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 95,6 foizi yoki 24 925,0 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 25,5 foizi yoki 4 982,7 mlrd. so'mni, tashkil qildi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 9 607 ta




104,9 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 20,4 foizi) 436,6 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 69,0 foizi) ni tashkil etdi.

## 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	43298,0	97,8
Sanoat	14 155,4	35,8
Qurilish	11 015,6	73,0
Chakana savdo	24 925,0	95,6
Yuk tashish, mln tn.	43,9	87,5
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	335,1	92,0
Ekspart, mln. AQSH doll.	104,9	20,4
Import, mln. AQSH doll.	436,6	69,0

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti  
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik  
tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**  
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2025- yil 1- yanvar holatida 43 001 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (41 915 ta) 102,6 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning (34,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (21,3 %), sanoat (14,0 %), qurilish (8,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,1 %), tashish va saqlash (2,9 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,9 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

**2024- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




**2024- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi**




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Kitob (755,2 mlrd. so'm), Mirishkor (807,9 mlrd. so'm), Muborak (853,1 mlrd. so'm), Chiroqchi (856,7 mlrd. so'm) tumanlar va Qarshi shahri (2 307,0 mlrd. so'm), tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

### 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (6 289,4 mlrd. so'm), Shahrisabz (1 900,9 mlrd. so'm) shaharlari va Chiroqchi (1 957,7 mlrd. so'm) va Koson (1 972,7 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

**2024- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari**



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 71,0 foizni tashkil qilib, 2023- yilning mos davrida 70,5 % foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Ko'kdala tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Shahrisabz shahri (79,2 %), Chiroqchi (69,9 %) tumanlariga va eng past ulushi Nishon (2,5 %) tumaniga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Mirishkor (88,1 %), Qamashi (88,0 %), Kitob (83,7 %), Kasbi (82,1 %), Dehqonobod (81,5 %), Koson (80,1 %), Nishon (79,6 %), Qarshi (79,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.